

ARAB ANORI (MOMORDIKA) O'SIMLIGINING YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti

Paluashova Gavharoy

Xoshimov Xojiakbar Shokirjon o'g'li

Annotatsiya. Maqolada Arab anori o'simligining morfologik belgilari, biologik xususiyatlari va xalq tabobatidagi ahamiyati to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Arab anori, meva, tuproqqa ishlash, yetishtirish, sug'orish, o'g'itlash, tabobatdagi ahamiyati.

Arab anori (Momordika) - Qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasiga mansub bir yillik bazan ko'p yillik bo'lgan o't o'simligi. Vatani Janubiy Osiyo. Momordika - Lianasimon o'simlik va uning bo'yi 2-8 metrgacha bo'ladi. Barglari yirik bo'ladi. Arab anori o'simligining kelib chiqish markazi to'liq o'rganilmagan, dastlab Afrika, Hindiston mamalakatlarida yetishtirila boshlagan.

Tuproqqa ishlov berish. Momordika yaxshi hosil berishi uchun tuproqqa ishlov berish muhim hisoblanadi. Momordika o'simligini ekishda va tuproqni tayyorlashda joy muhim. O'simlik asosan tik quyosh tushadigan yorug'likni yoqtiradi. Maydon tanlangandan so'ng dastlab kuzgi shudgorlash ishlarini olib borish kerak. Kuzda yer 25-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Shudgorlash ishlarini bajarilishi tuproqdagi mineral va organik o'g'itlar aralashishiga, zararkunandalarni kamayishiga va begona o'tlar yo'qolishiga yordam beradi. Haydash ishlarini amalga oshirishdan oldin tuproqqa 1 gektar maydonga 40-60 tonna organik o'g'it solinadi. Bahorda ekishdan oldin tuproqni 15-20 sm chuqurlikda yumshatiladi. Tuproqni yaxshilab tekislanadi va tuproqning ustki qavatida gi tuproqlar maydalanadi. Bu urug'larning teng unib chiqishiga yordam beradi. Qator orasini 70-80 sm qilib egatlar olinadi. O'simlik uyalari orasi 50-60 sm qilib ekiladi. Yer tayyorlangach urug'larni ekish ishlari olib boriladi.

Urug' tayyorlash. Momordika urug'lari qalin qobiqli bo'lganligi sababli unib chiqishi qiyinroq kichadi. Stratifikatsiya jarayonlarini bajarish urug' unib chiqishini osonlashtiradi. Bunda urug'larni 10-12 soat davomida iliq suvda ushlab turiladi. Urugni ekishdan oldin kaliy permanganatning 1-2% eritmasiga 20-30 daqiqaga solinadi. Bu urug'dagi turli kasalliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Urug'lar tuproqqa 2-3 sm chuqurlikga tuproq hararoti 15-20 C bo'lganda martning ohiri aprel oyining boshlarida ekiladi. Yaxshi ekilgan urug' 10 kunda unib chiqadi.

Urug' unib chiqqandan so'ng 2 hafta o'tgach tuproq yumshatiladi. Bu ildiz qismiga kislorod yaxshi yetib borishi uchun zarur. Yumshatish bilan birga o'simlikni begona o'tlardan muntazam tozalash kerak. Chunki begona o'tlar o'simlik o'sishiga xalaqit beradi.

Sug'orish. Momordika namlikni yaxshi ko'ruvchi o'simlik hisoblanadi. Sug'orish texnikasiga rioya qilish o'simlikning sog'lom o'sishi va yuqori hosil olishiga yordam beradi. Urug' unib chiqqandan so'ng 1 hafta o'tgach har 3 kunda sug'orish ishlari amalga oshiriladi. Sug'orish ishlari asosan ertalab va kechqurun amalga oshiriladi. Chunki shu vaqtlarda suv tez singadi va namlik yaxshi ushlanadi. Har sug'orishda 1 gektar maydonga 50-60 m³ suv sarflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Белолипов И.В. Краткие итоги первичной интродукции растений природной флоры Средней Азии в Ботаническом саду АН РУз.// Интродукция и акклиматизация растений.Ташкент: Фан. 1976. Вип.13. 9-58 С.
2. Мамикова Р. У. Интродукция лекарственных растений в предгорной зоне юга Казахстана.: Дис. ... канд. биол. наук. –Ташкент: АН РУз. 2005. –23 с.
3. Murdaxaev YU.M. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. – Toshkent: Fan, 1990. –76 b.

4. Ergashev A., Ahmedov O'., A.Abzalov., va boshq. —Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar, Toshkent, 2010. 3-4 betlar.
5. Qarshiboyev H.G.Ashurmetov O.H. "O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi ", metodik ko'rsatmalar Toshkent, 1989- 22 b .